

OZIQ-OVQAT SANOATI ZAMONAVIY JAMIYATNING AJRALMAS QISMI

Xamrayev Nodirbek - v.b.dotsent, i.f.f.d.

Qarshi davlat texnika universiteti

E-mail: nodir1984@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo aholisining o'sishi va iqlim o'zgarishlari bilan barchani etarli miqdorda oziq-ovqat bilan ta'minlash tobora qiyinlashib bormoqda. Ekinlar hosildorligini oshirish, saqlash va qayta ishlash usullarini takomillashtirish, yangi oziq-ovqat navlarini yaratishda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati zamonaviy jamiyatning ajralmas qismidir. Bu aholini nafaqat oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ijtimoiy taraqqiyotga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, sanoat, sog'liq, ekinlar, aholi.

Abstract: This article discusses the growing world population and climate change, making it increasingly difficult to provide everyone with enough food. The food industry plays an important role in increasing crop yields, improving storage and processing methods, and creating new food varieties. In general, the food industry is an integral part of modern society. It not only provides food for the population, but also makes a significant contribution to the economy, health, and social development.

Keywords: food, industry, health, crops, population.

Аннотация: В статье рассматривается растущая сложность обеспечения населения планеты продовольствием в условиях роста численности населения и изменения климата. Пищевая промышленность играет ключевую роль в повышении урожайности сельскохозяйственных культур, совершенствовании методов хранения и переработки, а также в создании новых видов продуктов питания. В целом, пищевая промышленность является неотъемлемой частью современного общества: она не только обеспечивает население продовольствием, но и вносит значительный вклад в экономику, здравоохранение и социальное развитие.

Ключевые слова: продовольствие, промышленность, здоровье, сельскохозяйственные культуры, население.

Hozirgi vaqtda aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Uning tarkibiga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, yarim tayyor mahsulotlar, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan keng turdagi korxonalar kiradi. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati muhim iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarni ham bajaradi. Avvalo, oziq-ovqat sanoati

ish o‘rinlarining asosiy manbalaridan biridir. Bu butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlarni ish bilan ta‘minlaydi, jumladan fermerlar, ishlab chiqarish ishchilari, transport xodimlari, qadoqlovchilar va savdogarlar. Buning natijasida oziq-ovqat sanoati ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi iqtisodiyotning o‘sishi va sarmoya jalb etilishiga xizmat qilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida mamlakatlar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarishi mumkin, bu esa eksport daromadlarini oshirish va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati sohasida zamonaviy texnologiyalar va tadqiqotlarga yo‘naltirilgan sarmoyalar hosildorlik va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, oziq-ovqat sanoati ham aholi salomatligi va farovonligiga ta’sir qiladi. Zamonaviy oziq-ovqat sanoati korxonalari yuqori sifat va xavfsizlik standartlariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishga intilmoqdalar. Ular ishlab chiqarishning innovatsion usullaridan foydalanadi, qayta ishlash va qadoqlash jarayonini nazorat qiladi, shuningdek, sanitariya me‘yorlari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladilar. Bu infektsiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish, shuningdek, aholini to‘yimli va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta‘minlashga yordam beradi. Oziq-ovqat sanoatining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyatini ham muhimdir. Shuning uchun oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri iqtisodiyotning investitsion faollik darajasi hisoblanadi. Davlat tomonidan investitsiya jarayonlarining barqaror va samarali davom etishini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu jarayonda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning nazariy asoslari va amaliy qoidalarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda investitsiya faoliyatining mohiyatini aniqlashga doir iqtisodiy tushunchalarni chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bu tushunchalarning aksariyati uzoq vaqt davomida o‘rganilgan va ma‘lum terminologik tizim shakllanganiga qaramasdan, ularning mazmuni iqtisodchi olimlar tomonidan yangidan aniqlashtirilmoqda va boyitilmoqda.

Shuni ta’kidlash kerakki, investitsiyalarga oid turli kategoriyalar va tushunchalarni izohlovchi ko‘plab ta’riflar mavjud. Ushbu ta’riflarning har biri o‘z o‘rnida to‘g‘ri bo‘lsa-da, ularni universal deb atash qiyin, chunki iqtisodiyotda foydalaniladigan asosiy tushunchalar doimo reproduktiv jarayonlarning rivojlanishi, tarixiy va iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, shuningdek, boshqaruv tizimlari va usullarining takomillashuvi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Shu sababli, investitsiya jarayonlarini to‘liq tushunish uchun «investitsiya salohiyati» tushunchasining iqtisodiy mazmunini atroflicha tahlil qilish zarur. Mazkur tushuncha bo‘yicha yondashuvlar xilma-xil bo‘lsa-da, ular uchta asosiy guruhga ajratilishi

mumkin:

hudud yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kapitalni jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi yondashuv sifatida qaraladi;

investitsiya salohiyati barcha mavjud resurslar va imkoniyatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda resurslar investitsion oqimlarni shakllantiruvchi omillar va shart-sharoitlarning tizimi orqali amalga oshadi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiy samaradorligi va faoliyat natijadorligi bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi.

Mazkur yondashuvlarning har biri investitsiya salohiyatining turli jihatlarini yoritishga xizmat qiladi va iqtisodiyot rivojlanishini chuqur anglash uchun muhim ahamiyatga ega.

«Investitsiya salohiyati» tushunchasiga xos xususiyatlarni o'rganish natijalarini umumlashtirib, ushbu kategoriyaning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda yagona yondashuvni shakllantirish uchun uning etimologiyasi va semasiologiyasiga murojaat qilish zarur, deb hisoblaymiz. «Potensial» atamasi lotincha (potentia) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kuch, imkoniyat degan ma'noni anglatadi. «Chet el so'zlari lug'atida ushbu chet tili tushunchasining qisqacha izohi «har qanday sohadagi mavjud vositalar va imkoniyatlarning yig'indisi» deb ta'rif berilgan». Sobiq Sovet ittifoqi Ensiklopediyasida salohiyat deganda «mavjud va safarbar etilishi, harakatga keltirilishi, muayyan maqsadga erishish, rejani amalga oshirish, muammoni hal qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan vositalar, zaxiralar, manbalar; shaxs, jamiyat, davlatning ma'lum bir sohadagi imkoniyatlari sifatida keltiriladi». P. Samuelson investitsiya jarayonini kapital shakllanishida joriy iste'mol uchun daromaddan foydalanishdan voz kechish va kelajakda iste'molning kutilayotgan kengayishi sifatida qaradi. «Uning yondashuvi uchta komponentning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi: investitsiyalarning uzoq muddatli tabiati, kapitalni shakllantirish jarayoni va investitsiyalarning ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilishi». Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni kapitalning qiymatini oshirish va daromad olish maqsadida turli ob'ektlarga kiritiladigan har qanday shakldagi kapital qo'yilmalar sifatida ko'rib chiqish mumkin. Muallifning fikricha, investitsiya jarayonini makon va vaqt nuqtai nazaridan takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish muhimdir. Bu nuqtai nazardan, investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda takror ishlab chiqarish yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv investitsiyalarni dinamik jarayon sifatida ko'rib, kapital shakllarining o'zgarishi, investitsiya resurslarining izchil investitsiya qo'yilmalariga aylanishi va mablag'larning kapital qiymatining o'sishiga aylanishini ifodalaydi.

Bunda investitsiyalar tarkibiga nafaqat pul mablag'lari, balki maqsadli bank depozitlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, texnika, asbob-uskunalar, boshqa mulkiy obyektlar va mulkiy huquqlar ham kiradi. Shuningdek, bu

resurslar tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat obyektlariga yo'naltiriladi. Investitsiyalar orqali investor o'zining strategik maqsadlariga erishishni, shuningdek, foyda yoki iqtisodiy samaradorlikka erishishni maqsad qiladi.

Shunday qilib, «investitsiya salohiyati» tushunchasi vaqt o'tishi bilan barqaror iqtisodiy daromadni ta'minlash imkoniyatini aks ettiruvchi investitsiya resurslarining aktivlarga kiritilishi darajasini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu tushuncha xo'jalik yurituvchi sub'ektning investitsiya faoliyatini amalga oshirishga qodirlik darajasini va uning iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. Muallif ta'kidlashicha, investitsiya salohiyati, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan resurslar bilan bog'liqdir. Investitsiya resurslari esa o'z navbatida, investitsiya faoliyatiga yo'naltiriladigan kapitalning miqdori va shaklini anglatadi.

Investitsion resurslarga quyidagilar kiradi: «pul mablag'lari, er uchastkalari, ularga aloqador binolar va inshootlar, turli xil uskunalar, transport va suzuvchi transport vositalari, mineral xom ashyo resurslar, o'rmon maydonlari va suv resurslari, patentlar, sanoat namunalari bo'lgan huquqlar, mahsulotlar, ularni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari, tovar belgilari va sertifikatlar va boshqalar».

Iqtisodiy jihatdan, kapital va resurslarni investitsiya sifatida tasniflashda asosiy mezon ularning foydaliligi, qiymati va tannarxi bilan belgilanadi. Tasniflashning asosiy sharti esa ushbu resurslarning real investitsiya obyektlariga yo'naltirilishida foydalanish imkoniyati va iqtisodiy jihatdan samaradorligidir. Shuningdek, huquqiy nuqtai nazardan qaralganda, investorlar ushbu kapital va resurslarni tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi zarur.

Investitsion resurslarning qiymati, ularning eskirish darajasi va investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlari iqtisodiy sub'ektning real bozor qiymati orqali uning investitsiya salohiyatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, investitsiya salohiyati - bu investitsiya kiritish imkoniyatini ifodalaydigan darajadir. Ushbu salohiyat kelajakdagi investitsiyalar uchun zamin bo'lib, iqtisodiyotdagi talabni shakllantiradi va yangi resurslarning manbai sifatida xizmat qiladi.

Shu ma'noda, «investitsiya salohiyati» tushunchasi ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, uni iqtisodiy va huquqiy kontekstda birgalikda tahlil qilish zarur. U xo'jalik yurituvchi sub'ektning mavjud resurslarni iqtisodiy maqsadlar uchun muvaffaqiyatli jalb qilish va ishlatish qobiliyatini aks ettiradi. Bu tushuncha investitsiyalarning faqat iqtisodiy foydalilik darajasini emas, balki ularning huquqiy va amaliy qo'llash imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, investitsiya salohiyati iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun strategik imkoniyatlarni belgilab beruvchi tushuncha bo'lib, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mavjud daromadlarini jamg'arish maqsadida yo'naltirish niyati bo'lmagan taqdirda ham investitsiya salohiyati ob'ektiv ravishda

mavjud bo'lib, real investitsiya talabiga aylanish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya salohiyatining mazmunini chuqur tahlil qilish va uning amalga oshirilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining investitsiya niyatlarini hayotga tatbiq etishda mavjud imkoniyatlar, masalan, ishchi kuchi yetarliligi, mahalliy hokimiyat organlarining ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga roziligi kabi omillarni har doim hisobga olmaydilar. Biroq, investitsiya jarayonlarining muvaffaqiyati nafaqat loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga, balki ushbu salohiyatni real investitsiya faoliyatiga jalb qilish uchun zarur bo'lgan sharoitlarga ham bog'liq.

Shunday qilib, investitsiya salohiyati nafaqat mavjud investitsiya resurslarining hajmi bilan belgilanadi, balki ularni samarali ishlatish imkonini beruvchi shart-sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya salohiyati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni to'liq tavsiflash uchun ayrim hollarda aniq terminologik ta'rifga ega bo'lmagan tushunchalarni ham ko'rib chiqish zarur. Investitsiya salohiyati iqtisodiy sub'ektning o'zida mavjud va jalb qilinadigan resurslarni o'z strategik maqsadlari uchun foydali ishlata olish qobiliyatini aks ettiradi. Bu tushuncha, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini belgilashda muhimdir.

Shuni ham qayd etish joizki, «investitsiya salohiyati» tushunchasi «investitsiyaga ehtiyoj» tushunchasidan ancha farq qiladi. Investitsiyaga ehtiyoj — bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy rejalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar miqdorini anglatadi. Boshqacha aytganda, ehtiyoj qisqa muddatli va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, salohiyat esa resurslarni jalb qilish va foydalanish imkoniyatlarining maksimal chegarasini belgilaydi.

Hududiy nuqtai nazardan qaraganda, muayyan hududlarda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining investitsiya salohiyati mamlakatning umumiy investitsiya salohiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu salohiyatni, shuningdek, davlat byudjetidan yoki boshqa moliyaviy manbalardan ajratiladigan mablag'lar ham to'ldiradi. Hududiy va milliy darajada investitsiya imkoniyatlarini birlashtirish natijasida iqtisodiyotning umumiy investitsion imkoniyatlari shakllanadi. Shu jihatdan, investitsiya salohiyati nafaqat iqtisodiy resurslarning mavjudligi, balki ularning samarali jalb qilinishi va ishlatilishining strategik rejasi bilan ham uzviy bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matthew N. O. Sadiku | Sarhan M. Musa | Tolulope J. Ashaolu "Food Industry: An Introduction" Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Volume-3 | Issue-4, June 2019, pp.128-130
2. Tolipova B.F. Oziq-ovqat sanoatining investitsiyaviy samaradorligini

oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" 156 ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. 207-b.

3. Mamatkulov M.Sh. Organizational and economic foundations of food industry Enterprises // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12, r.923

4. A.V. Panova, International Research Journal, 7 (97) (2020)

5. Belyaev N., Donskova L. Food Sector New Technologies and Innovations: Priorities for Vector Development / SHS Web of Conferences 93, 04017 (2021), r.5

6. Rastorguev P.V. Osobennosti formirovaniya sistem kontrolya kachestva i bezopasnosti produkcii APK v otdelnix stranax. Ekonomicheskie voprosi razvitiya selskogo xozyaystva Belarusi. 2013. 1(41):159-170.

7. Zavyalova L.I., Prudnikov K.O. Organizatsionnaya struktura upravleniya predpriyatiyami pishевой promishlennosti // EKONOMIKA i UPRAVLENIE. № 4, 2006g., s.12

8. Ryabova N.V., Saidov Z.A. Sistema upravleniya biznes-prosessami v krupnix kompaniyax pishевой promishlennosti // Rossiyskoe predprinimatelstvo. – 2008. – Tom 9. – № 9. – S. 90-95.